

MADANIYATLARARO MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHDA FILM VA SERIALLARING O'RNI

Abdazova Mukhlisa

English language 3 faculty student, UzSWLU

Scientific advisor: Rashidova Gulshoda

Teacher, UzSWLU

Annotatsiya. Ushbu maqola da film va seriallarning madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda gi roli yoritilgan. Asosiy e'tibor film va seriallardagi xorijiy madaniyatlar, urf-odatlar va ularning muloqatga ta'sir etuvchi omillarga qaratilgan. Tadqiqotda film va seriallar orqali til o'rganish jarayonida madaniy tafovutlarni aniqlash , ularga hurmatda bo'lish va muloqot jarayonida ulardan to'g'ri foydalanish bilan samarali muloqatga kirishish ko'nikmasining rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Misollar va tavsiyalar orqali mavzu yoritiladi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, film, serial, ko'nikma, til o'rganish, daraja oshirish,o'qitish metodikasi, kommunikativ kompetensiya, audiovizual vositalar

Abstract: This article explores the use of movies and TV series as a tool for developing intercultural communication competence in foreign language teaching. The mainly focused on how culture, traditions in films and TV series have an effect on communication with others. Study shows while learning a foreign language especially english, people can learn cultural differences and can communicate smoothly without disrespecting others. The paper also explores facts and analysis and explore the theme deeper.

Key words: Intercultural communication, film, TV series, skills, learning language, increasing level, teaching methods, audiovisual tools.

Kirish


Hozirgi Globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga kuchayib bormoqda.Xususan, chet tilini o'rganishda faqat grammatik bilim va so'z boyligini shakillantirishning o'zigina kifoya emas. Shu bois madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Til bu- nafaqat aloqa vositasi, madaniyatni, mitalitetni, qasiriyatlar va dunyo qarashni o'zida mujassam etgan bir tuzilmadir. Shu nuqtai nazardan qaraganda chet tilini o'rganganda albatta uning madaniyatini tushunish ham muhim o'rin tutadi. XXI asr innovatsion ta'lim va texnologiyalar asri ekanligini hisobga organ holda ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy vositalar,va texnologiyalar keng joriy qilinmoqda(Gulomova, 2022).Shulardan biri sifatida film va seriallardan o'quv jarayonida vosita sifatida foydalanishni tilga olish mumkin.Film va seriallar orqali nafaqat til balki o'sha tilga mansub xalq madaniyati, kundalik hayoti, urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlari haqida ham ko'plab narsalar o'rganish mumkin. Bu esa o'z

nabatida til o'rganilyotgan shaxsda boshqalar madaniyatiga hurmat, farqlarni qabul qilish, o'z fikrini aniqlik va samarali yo'l bilan yetkazib berishiga imkon yaratadi.


Bu mavzuda so'z olib borar ekanmiz "O'zi film va seriallarning chindan foydasi bormi? U bizning mentalitetimizga salbiy ta'sir etmaydimi? " degan savol keladi. Javob esa albatta foydasi bor, film va seriallar xorijiy tillarni o'qitishda nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki o'quvchilarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotchilar Byram (1997) va Kramsch (1993) o'z ishlarida til o'rganishda madaniy kontekstning muhimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, madaniyat til bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchi nafaqat so'zlarning lug'aviy ma'nosini, balki ularning ijtimoiy vaziyatlardagi qo'llanilish maqsadini ham tushunishi zarur. Bu borada film va seriallar o'quvchini turli madaniy kontekstlarga joylashtiradi va tilni faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham o'rganishga yordam beradi. Film lar qaysi ko'nikmalariga ta'sir etishi bo'yicha Bryam (1997) tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiya modelini ko'rishimiz mumkin. U 5 ta asosga tayanadi:

1. Madaniyatlararo tafovutlarni anglash va hurmat qilish
2. O'z madaniyatini tanitish va taqqoslashga tayyor bo'lish
3. Til orqali boshqa madaniyatga qiziqish uyg'onish
4. Chegaralangan holatlarga yo'l qo'yilganda tushunmovchilikni to'g'irlash qobiliyati.
5. Kommunikatsiya samaradorligini oshirish

Endi yana bir boshqa masala ya'ni film va seriallarning "4 ta skill" larga ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, va yozishga foydasini ko'rib chiqsak, filmlar



SIZNING FIKRINGIZCHA, FILM VA SERIALLAR ORQALI CHET TILINI O'RGANISH:



SIZ FILM YOKI SERIAL TOMOSHA QILGANINGIZDA BOSHQA
MILLAT MADANIYATINI TUSHUNISHGA HARAKAT QILASIZMI?

orqali asosan tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalari sezilarli darajada oshadi. Bunga misol qilib Germaniyada talabalarga ingliz tilidagi film sahnalari asosida rol o'yinlar(roleplay lar) tayyorlash topshirilgan. Natijada ularning dialog tuzish, ohangni aniqlash va mos kontekstda ibora tanlash ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilangan (Kern, 2000). [Http://www.ef.com](http://www.ef.com) sayti ma'lumotiga ko'ra tillar va madaniyatni o'rganishdagi eng yaxshi filmlar quyidagilar: Roma (2018) – Spanish, The Lives of Others (2006) – German, Divines (2016) –

French, Aquarius (2016) – Portuguese, Jiro Dreams of Sushi (2011) – Japanese, Happy as Lazzaro (2018) – Italian, Warehoused (Almacenados) (2015) – Spanish. Ingliz tili o'rganuvchilari uchun esa BSC EDUCATION quyidagi filmlarni tavsiya etadi: 1. "Forest Gump" IQ si past bir insonning oddiy hayotini hikoya etuvchi film. Film 'Southern Drawl' aksentida gapiruvchi Forest Gump Ning o'zi tomonidan aytib beriladi bu o'quvchilarga aksentlarni ajratish va talaffuz qilishda qolaversa Amerika janubida yashovchilar hayotini ham o'rganishda yordam beradi. 2. "When Harry meets Sally" Amerikaning 90-yillardagi hayoti haqida so'zlovchi film. Unda o'rganuvchiga foydali ingliz tilidagi frazalarni topishingiz mumkin. Bulardan tashqari ro'yatda Four Weddings and a Funeral, Little Women, Great Gatsby, The Social Network, Juno, The Imitation Game, Frozen, The King's Speech kabi filmlar mavjud.

Maqola mavzusidan kelib chiqqan holda 15-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar orasida kichik so'rovnoma o'tkazdim va buni quyidagi natijaga erishildi.

Xulosa

Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bugungi globallashuv davrida tilni faqat grammatik va leksik bilimlar bilan cheklab o'rganish yetarli emas. O'quvchilar va talabalar o'rganayotgan til orqali shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlari va tafakkur tarzini ham anglab borishlari zarur. Ana shu nuqtai nazardan, filmlar va seriallar chet tilini o'rganish jarayonida nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda ham samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida filmlar va seriallarning o'quvchilarda empatiya, tolerantlik, madaniy farqlarga nisbatan hurmat kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirishga ijobiy ta'siri borligi aniqlandi. Ayniqsa, autentik materiallar sifatida film va seriallar o'ziga xos til ohanglari,

nutq uslublari, mimika va jestlarni namoyon qilishi orqali o'rganilayotgan tilning madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, interaktiv dars shakllarida film asosida muhokama, rolli o'yin, ssenariy yozish kabi topshiriqlarning kiritilishi talabalarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol muloqotga chorlaydi. Natijada nafaqat til bilimlari, balki ularning kommunikativ va madaniy kompetensiyalari ham rivojlanadi. Kelajakda xorijiy tillarni o'qitishda film va seriallardan foydalanishga oid metodik qo'llanmalar ishlab chiqish, ularni darsliklar va o'quv dasturlariga integratsiyalash bo'yicha izlanishlar davom ettirilishi zarur. Bu esa ta'lim sifatini oshirishda va o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BSC Education. (n.d.). Best English Movies to Learn English. Retrieved from: <https://www.british-study.com>
2. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.
3. EF Education First. (n.d.). Top films for learning languages and culture. Retrieved from: <https://www.ef.com>
4. Gulomova, R. (2022). AUTHENTIC MATERIALS AS A SOCIOLINGUISTIC APPROACH. *British View*, 7(1).
5. Kern, R. (2000). Literacy and Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
6. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
7. Rashidova, G. (2024). USING COMMUNICATIVE ACTIVITIES THROUGH APPROACHES IN TEACHING MODERN ENGLISH. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 471-474.